

ZARDO‘ZLIK SAN‘ATI – OLTIN IPLAR BILAN YOZILGAN TARIX

Axmedova Nazokat Erkinovna

Xalqaro Nordik universiteti

Psixologiya va maktabgacha ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi



O‘zbekistonning badiiy merosi jahon san‘ati va madaniyatiga beqiyos hissa qo‘shgan bo‘lib, qadimiy Sharq sivilizatsiyasining yorqin o‘chog‘i sifatida e‘tirof etiladi. O‘zbek xalqining boy va rang-barang madaniy merosi ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, unda xalq amaliy bezak san‘ati alohida o‘rin tutadi. O‘tmishda bobokalonlarimiz tomonidan barpo etilgan ulug‘vor me‘moriy obidalarga nazar tashlasak, ularning yuksak didi, beqiyos

san‘atkorligi va mahoratiga qoyil qolamiz. Bu betakror yodgorliklar nafaqat milliy madaniyatimizning durdonalari, balki jahon san‘atining muhim qismi sifatida e‘tirof etiladi. O‘tmishda bobokalonlarimiz qurgan ulug‘vor binolarga boqib, ularning naqadar yuksak did va mahorat egasi bo‘lganliklariga guvoh bo‘lamiz.

XX asr boshlariga qadar zardo‘zlik san‘ati murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Dastlab u lashkarboshilar va qabila yetakchilarining liboslarini bezash uchun ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik feodal tuzum davrida faqat hukmdorlar va zodagonlar ehtiyojini qondiruvchi nafis san‘atga aylandi. Asrlar davomida bu san‘at insonlarga quvonch ulashib, ularning hayotini go‘zallashtirib kelgan.

Zardo‘zlik san‘atining estetik qiymati unda qo‘llaniladigan qimmatbaho materiallardan ham ustundir. Oddiy xom ashyolardan ustalar mohirlik bilan san‘at durdonalarini yaratib, ularga beqiyos estetik joziba bag‘ishlaganlar. Shu bois zardo‘zlikning eng mukammal asarlari bebaho san‘at namunalari sifatida e‘tirof etiladi.

Bu san‘at o‘ziga xos uslubga ega bo‘lib, undagi naqshlarning mantiqiy tuzilishi, nina orqali yaratilgan nafis obrazlarning yuksak mahorat bilan bajarilishi natijasida betakror san‘at asarlari yuzaga kelgan. Zardo‘zlik san‘ati qadimiyligiga qaramay, saqlanib qolgan namunalari asosan XIX–XX asr



boshlariga taalluqlidir. Ushbu san'atning ilk namunalari iz qolmagan yoki ular hali topilmagan. Bugungi kunda mamlakatimiz muzey fondlarida Buxoro zardo'zlik san'atining mingdan ortiq turi saqlanmoqda, shulardan 300 ga yaqini XIX–XX asr boshida tikilgan erkaklar choponlaridir.

Buxoro zardo'zlik san'ati yodgorliklari saqlanayotgan yagona mamlakat faqat O'zbekiston emas. Biroq bu buyumlarning katta qismi aynan O'zbekiston muzeylarida jamlangan. Xususan, Toshkent Davlat san'at muzeyida zardo'zlikning boy va yaxshi o'rganilgan kolleksiyasi mavjud.

Tarixiy manbalar va muzey kolleksiyalariga asoslanib, zardo'zlik san'ati qadimdan davom etib kelganini ko'rish mumkin. Ushbu san'at turi qadimgi Old Osiyo davlatlari – Ossuriya, Babil, Eron, Xitoy, Hindiston, Vizantiya hamda keyinchalik G'arbiy Yevropa, Turkiya va Afg'onistonda ham mashhur bo'lgan.

Bugungi kunda zardo'zlik san'ati ko'plab Yevroosiyo xalqlari madaniyatida saqlanib qolgan bo'lib, u interyer bezaklarida, shuningdek, milliy xarakterga ega erkaklar, ayollar va bolalar bayram liboslarida keng qo'llanilmoqda. G'arbiy Yevropada asosan binolar interyeri bezagida uchrasa, Old Osiyo – Eron, Turkiya, Arab mamlakatlari hamda O'rta Osiyoning o'zbek, tojik, ba'zi qozoq xalqlari va Afg'onistonning turli millatlari hayotida ham bu san'atning izlarini ko'rish mumkin. Tarixan zardo'zlik bilan asosan erkaklar shug'ullangan, ammo bu san'at ayollar va qizlarga ham o'rgatilgan. Ular shoshilinch buyurtmalar bo'lganda erkaklarga yordam berishgan. Badiiy manbalar va hunarmandlarning hikoyalari ko'ra, buyurtmalar haddan tashqari ko'payganda, usta ishning bir qismini uyida ayoli yoki yaqinlariga topshirgan. Biroq, ayollarning ularning nomi tilga olinmagan, ular shunchaki «ustaning ayoli» yoki «qizi» sifatida tilga olingan, xolos.

Zardo'zlik san'atini o'rgatish jarayoni an'anaviy asosda tashkil etilgan bo'lib, usta-hunarmandlar asosan o'z farzandlari va yaqin qarindoshlarini shogirdlikka qabul qilganlar. Begona bolalarning shogirdlikka olinishi juda kam uchragan. Ta'lim jarayoni uzoq yillar davom etgan bo'lib, hunar sirlarini to'liq egallagan shogirdlar "usto" hunarmand unvoniga ega bo'lgan. Shundan so'ng ular pulli yollanma ishchi – ya'ni "xalfa" sifatida faoliyat yuritgan yoki mustaqil ustaxona ochganlar.

Zardo'zlik san'ati maxsus dastgoh – turli o'lchamdagi "korcho'b" orqali bajarilgan. Ish jarayonida "qaychi ushur gardon" (tuya bo'yin shaklidagi maxsus qaychi), ichiga qo'rg'oshin quyilib og'irlashtirilgan "patila" tayoqchasi, "so'zan" ignasi va ikkita "angushvona" (angishvona) asosiy ish qurollari sifatida qo'llanilgan.

Avloddan avlodga o'tib kelayotgan zardo'zlik san'atida ustalar ko'plab o'ziga xos uslublarni kashf qilib, ularni takomillashtirganlar. Bezak berilayotgan buyumlarning faqat yuza qismi qimmatbaho ip bilan tikilgan bo'lib, astar tomonida esa oddiy paxta ip izlarini ko'rish mumkin.

Zardo‘z ustalarining tikish uslubi deyarli bir xil bo‘lgan. E.M. Pesherovalar bu jarayonni quyidagicha tasvirlaydi: **“Usta “korcho‘b” oldida o‘tirar ekan, o‘ng qo‘li ishning ustki qismida, chap qo‘li esa dastgoh pastida joylashgan bo‘lardi. “Patila”ga zar ip o‘ralgan bo‘lib, usta tikish jarayonida ignani pastdan yuqoriga yo‘naltirar, so‘ng uni naqsh chetiga suqib, zar ipning so‘ngini mahkamlardi. Shundan keyin patila o‘ng tomonga qo‘yilib, igna shu tomondagi zar ipni mustahkamlardi. Shu tarzda naqsh chizig‘iga parallel andaza to‘ldirilib borilar edi. Ish yakunida esa zar ip mahkamlanib, maxsus qaychi bilan qirqilardi.”**

Zardo‘zlik san‘ati amaliy san‘atning boshqa turlari kabi uch asosiy xususiyat bilan ajralib turadi: **kompozitsiya, naqshning nafisligi va ranglar mutanosibligi**. Bezak berilayotgan buyumning kompozitsiyasi, naqshi va rangi ustaning mahorati bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Har bir zardo‘zlik asarining o‘ziga xos jozibasi mavjud bo‘lib, u san‘at ixlosmandlarini befarq qoldirmagan.

Ushbu qadimiy san‘at asrlar davomida rivojlanib, xilma-xil kompozitsiyaga ega milliy namunalarni yaratdi. Avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan zardo‘zlik an‘analari o‘z qadrini yo‘qotmadi. Ustalar nomi tarixda ko‘p ham tilga olinmagan bo‘lsa-da, ularning sabr-toqat bilan yaratgan asarlari bizgacha yetib kelgan. Bugungi kunda ham zardo‘zlik san‘ati gullab-yashnamoqda, rivojlanmoqda va insonlarni hayratga solishda, ilhomlantirishda davom etmoqda.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan zamonaviy tasviriy va amaliy san‘at bilan shug‘ullanayotgan yosh iste‘dod egalari uchun keng imkoniyatlar yaratilib, ularning ijodiy rivojlanishi qo‘llab-quvvatlanmoqda. Yosh hunarmandlarning mohir qo‘llari bilan yaratilgan zardo‘zlik san‘ati durdonalari nafaqat O‘zbekistonda, balki xalqaro amaliy san‘at ko‘rgazmalarida ham namoyish etilmoqda. Ayniqsa, jahonning etakchi dizaynerlari va yosh iste‘dodli ijodkorlar o‘z kolleksiyalariga sharqona nafislik va takrorlanmas zardo‘zlik bezaklarini kiritayotganining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M. A. Bikajanova, “Toshkentdagi o‘zbek ayollarining liboslari,” “Markaziy Osiyo xalqlari liboslari,” Moskva, 1979.
2. P. A. Goncharov, “Buxoro zardo‘zlik san‘ati,” G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986.
3. S. Bulatov, “O‘zbek xalq amaliy san‘ati,” Toshkent, “Mehnat,” 1991.
4. A. I. Sidorenko, A. R. Artykov, R. R. Rajabov, “Buxoro zardo‘zlik san‘ati,” 1-jild, 1981.
5. [https://www.centralasiatravel.com/ru/countries/uzbekistan/places/photos?cat=1089#prettyPhoto\[main\]/24997/](https://www.centralasiatravel.com/ru/countries/uzbekistan/places/photos?cat=1089#prettyPhoto[main]/24997/)
6. <https://society.uz/uz/news/detail/news/1709>

7. Akhmedova, N. (2023). EMBROIDERY IN UZBEKISTAN: A RICH HISTORY AND PRACTICAL CRAFTSMANSHIP. *Science and innovation*, 2(C5), 81-84.
8. Axmedova, N. E. (2024). MUSIQIY RITM VA TASVIRIY SAN'AT: SINESTEZIYA FENOMENI. *Nordic_Press*, 5(0005).
9. Axmedova, N. (2024). ЭСТЕТИКА И ФУНКЦИОНАЛЬНОСТЬ УЗБЕКСКОЙ КЕРАМИКИ XIX ВЕКА: ТРАДИЦИИ И ТРАНСФОРМАЦИИ. *Nordic_Press*, 3(0003).
10. Ibrokhim, Y., Nazokat, A., Nodirjon, M., & Abdusalom, M. (2021). The Period Of Book Art. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
11. Axmedova, N. (2024). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА TASVIRIY FAOLIYATNING AHAMIYATI. *Nordic_Press*, 3(0003).
12. Razzoqova, M. (2024). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA AHLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH: ahloqiy tarbiya maktabgacha yosh. *Nordic_Press*, 2(0002).
13. Razzoqova, M. (2024). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI AHLOQIY TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI: МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI AHLOQIY TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI. *Nordic_Press*, 2(0002).
14. Egamberdiyeva, M. (2024). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TARBIYASIDA XALQ ERTAKLARI VA MAQOLLARNING ROLI. *Nordic_Press*, 3(0003).
15. Khasanova, M. (2024). THE ROLE OF ETHNOMUSICOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATION: CHALLENGES AND SOLUTIONS IN MUSICOLOGY. *Nordic_Press*, 5(0005).